Sun'iy intellekt texnologiyalarining bank faoliyatiga kirib kelishi kredit risklarini boshqarishning nazariy va amaliy yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Mazkur yo'nalishning O'zbekistondagi institutsional asoslari, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son⁴ "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan mustahkamlangan [1]. Mazkur hujjatda bank sohasida sun'iy intellektdan mijozlarning to'lov qobiliyatini baholash, moliyaviy xavflarni boshqarish, monitoring, tahlil, rejalashtirish va prognozashtirish jarayonlarida foydalanish alohida yo'nalish sifatida belgilangan. Shuningdek, davlat ulushidagi tijorat banklarida "katta ma'lumotlar" va sun'iy intellekt asosida moliyaviy xavflarni boshqarish hamda mijozlarning to'lov qobiliyatini baholashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish nazarda tutilgan. Bank tizimini isloh qilishning 2020–2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasida ham banklarda risklarni boshqarish tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va bank xizmatlarini raqamlashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan edi [2].

Kredit risklarini boshqarishning institutsional jihatlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy barqarorlikka oid yondashuvlarida ham o'z aksini topadi. Xususan, Markaziy bankning so'nggi moliyaviy barqarorlik sharhlarida kredit riski, qarz yukining shakllanishi, muammoli kreditlar, makroprudensial vositalar va stress-testlar bank tizimi barqarorligini baholashning muhim elementlari sifatida qaraladi [5]. Bu esa kredit riskini faqat individual qarz oluvchi darajasida emas, balki butun kredit portfeli va bank tizimi kesimida kompleks boshqarish zarurligini ko'rsatadi.

Kredit riskini boshqarishning xalqaro metodologik asosi Bazel bank nazorati qo'mitasining "Kredit riskini boshqarish tamoyillari"da shakllantirilgan bo'lib, unda kredit riskini boshqarish uchun maqbul muhit yaratish, sog'lom kredit berish jarayoni, kreditni boshqarish, o'lchash va monitoring qilish tizimi hamda kredit riski ustidan yetarli nazoratni ta'minlash banklar faoliyatining asosiy talablari sifatida belgilangan [7]. Keyinchalik Bazel qo'mitasi fintech rivojlanishining banklar va bank nazorati uchun oqibatlarini tahlil qilib, sun'iy intellekt va mashinali o'qitishdan foydalanish banklarda operatsion, model va uchinchi tomon risklarini boshqarishga yangi talablar qo'yishini ta'kidlagan [8]. Moliyaviy barqarorlik kengashi (FSB) ham kredit skoringi va riskni baholashda sun'iy intellektdan foydalanishning samaradorlikni oshirish imkoniyatlari bilan bir qatorda, modellarning izohlanmasligi va bir xil algoritmlarga tayanish natijasida vujudga keladigan tizimli risklarni qayd etgan [9]. Yevropa bank boshqarmasi (EBA) esa katta ma'lumotlar va ilg'or analitikadan foydalanishning to'rt asosiy ustuni — ma'lumotlarni boshqarish, texnologik infratuzilma, tashkiliy boshqaruv va analitik metodologiya — hamda izohlanuvchanlik, xolislik va ma'lumotlar sifatiga asoslangan ishonch elementlarini belgilab bergan [10].

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda kredit risklarini sun'iy intellekt asosida baholash masalasi, asosan, kredit skoringi, defolt ehtimolini prognozlash, mashinali o'qitish va katta ma'lumotlardan foydalanish yo'nalishlarida rivojlangan. Khandani, Kim va Lo iste'mol kreditlari bo'yicha tranzaksion ma'lumotlar va kredit byurosi ma'lumotlariga asoslangan mashinali o'qitish modellari yordamida to'lov kechikishlarini bir necha oy oldin prognozlash mumkinligini ko'rsatib, bunday modellarning kredit liniyalarini oldindan boshqarish orqali yo'qotishlarni kamaytirish imkoniyatini asoslagan [14]. Lessmann, Baesens, Seow va Thomas tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda 8 ta real kredit ma'lumotlar to'plami asosida 41 ta klassifikatsiya algoritmi taqqoslangan bo'lib,

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori. URL: <https://lex.uz/docs/-7158604>



tadqiqotchilar kredit skoringida zamonaviy klassifikatsiya algoritmlarining prognozlash imkoniyatlarini tizimli ravishda baholagan [13]. Ushbu yondashuv kredit riskini baholashda algoritm tanlash, modelning prognozlash aniqligi va moliyaviy natijalarni birgalikda hisobga olish zarurligini asoslaydi.

Bazarbash (2019) esa mashinali o'qitish texnologiyalarining kredit riskini baholashdagi imkoniyatlarini tahlil qilib, an'anaviy kredit skoringiga nisbatan katta hajmdagi va no'an'anaviy ma'lumotlardan foydalanish, qarz oluvchining kredit tarixini chuqurroq baholash, daromad istiqbollarini prognozlash va umumiy iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishini hisobga olish imkoniyatlarini qayd etadi [15]. Shu bilan birga, muallif ma'lumotlarning sifati va dolzarbligi, algoritmlarning "qora quti" xususiyati hamda diskriminatsiya xavfi kabi masalalarni sun'iy intellektga asoslangan kredit baholashning muhim cheklovlari sifatida ko'rsatadi. Fuster, Goldsmith-Pinkham, Ramadorai va Walther tadqiqotida esa mashinali o'qitish modellari umumiy prognozlash aniqligini oshirgani holda, kredit resurslarining turli qarz oluvchilar guruhlariga o'rtasida taqsimlanishidagi tafovutlarni kuchaytirishi mumkinligi empirik jihatdan ko'rsatilgan [16]. Bu natija algoritmik xolislikni nazorat qilishni kredit riskini boshqarish mexanizmining ajralmas elementi sifatida qarash zarurligini tasdiqlaydi.

O'zbekistondagi zamonaviy tadqiqotlarda ham mazkur yo'nalishga e'tibor kuchaymoqda. Sattarova (2025) tijorat banklarida kredit risklarini boshqarishda sun'iy intellekt va mashinali o'qitish algoritmlaridan foydalanishni kredit reytingi, defoltni prognozlash, firibgarlikni aniqlash va kredit portfelini boshqarish bilan bog'laydi [20]. Berdiyarov tomonidan olib borilgan tadqiqotda esa O'zbekiston tijorat banklarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish mexanizmlari, jumladan, kredit riskini baholash, mijozlarni segmentatsiyalash va defolt ehtimolini prognozlash masalalari ko'rib chiqilgan.

So'nggi ilmiy ishlarda kredit risklarini boshqarishda izohlanadigan sun'iy intellekt (Explainable AI — XAI) masalasi ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Lundberg va Lee tomonidan ishlab chiqilgan SHAP usuli [18] hamda Ribeiro, Singh va Guestrin tomonidan taklif etilgan LIME usuli [19] murakkab modellarning alohida qarorlarini izohlash imkonini beradi⁵. Bussmann, Giudici, Marinelli va Papenbrock kredit riskini boshqarishda Shepli qiymatlariga asoslangan izohlanadigan mashinali o'qitish modelini qo'llab, yuqori prognozlash aniqligi va qarorlarning shaffofligini birgalikda ta'minlash mumkinligini ko'rsatgan [17]. Rajabov (2026) ham kredit riskini baholashda gradient boosting algoritmlarini SHAP va LIME kabi izohlash usullari bilan integratsiyalashni taklif qilib, yuqori prognozlash qobiliyatiga ega model bilan bir qatorda kredit qarorlarining sabablarini tushuntirish imkoniyatini ta'minlash zarurligini asoslaydi [21]. Tartibga solish amaliyotida ham bu masala dolzarb: Yevropa Ittifoqining sun'iy intellekt to'g'risidagi reglamentida kredit skoringi tizimlari yuqori riskli tizimlar qatoriga kiritilgan⁶ [11], MHXS (IFRS) 9 standarti esa kutilayotgan kredit yo'qotishlarini istiqbolli (forward-looking) ma'lumotlar asosida baholashni talab qiladi [12].

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili sun'iy intellekt kredit risklarini baholash va prognozlashning analitik imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirishini ko'rsatadi [13–17]. Biroq O'zbekiston tijorat banklari sharoitida masala faqat kredit skoringining aniqligini oshirish bilan cheklanmaydi. Sun'iy intellekt asosidagi risk identifikatsiyasi, kredit portfeli monitoringi, erta ogohlantirish, model validatsiyasi, izohlanadigan qarorlar va inson nazoratini yagona boshqaruv mexanizmiga integratsiya qilish masalalari yetarlicha tizimli tadqiq etilishi lozim. Mazkur ilmiy bo'shliq ushbu tadqiqotning asosiy yo'nalishini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tijorat banklarining kredit portfeli risklarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida boshqarish mexanizmini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini aniqlashga yo'naltirilgan kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari, yillik hisobotlari va moliyaviy barqarorlik sharhlari [4–6], bank faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar [1–3], xalqaro tashkilotlarning metodik materiallari [7–12] hamda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari [13–21] tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, dinamik qatorlar tahlili, induksiya va deduksiya, ekspert baholash hamda ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanildi.

Empirik tahlil 2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvargacha bo'lgan, ya'ni 2023, 2024 va 2025-yillardan iborat uch to'liq yillik davrni qamrab oladi. Kredit portfeli sifatini baholashda muammoli kreditlar (NPL)⁷ hajmi va

5 SHAP (SHapley Additive exPlanations) — kooperativ o'yinlar nazariyasidagi Shepli qiymatlariga asoslanib, har bir omilning model natijasiga qo'shgan hissasini baholovchi usul; LIME (Local Interpretable Model-agnostic Explanations) — murakkab modelning alohida qarorini lokal soddalashtirilgan model orqali izohlovchi usul.

6 Yevropa Ittifoqining 2024-yil 13-iyundagi 2024/1689-son Reglamenti (AI Act) III ilovasiga ko'ra, jismoniy shaxslarning kreditga layoqatligini baholash va kredit reytingini aniqlash uchun mo'ljallangan sun'iy intellekt tizimlari yuqori riskli tizimlar toifasiga kiritilgan. URL: <http://data.europa.eu/eli/reg/2024/1689/oj>

7 Muammoli kreditlar (NPL — non-performing loans) — Markaziy bank tasnifiga ko'ra "qoniqarsiz", "shubhali" va "umidsiz" toifalariga kiritilgan kreditlar. Xalqaro amaliyotda NPLning asosiy mezonini asosiy qarz yoki foiz to'lovining 90 kundan ortiq muddatga kechiktirilganligi hisoblanadi.



ulushi bilan bir qatorda quyidagi hisob-kitob ko'rsatkichlaridan foydalanildi: o'rtacha yillik o'sish sur'ati (CAGR)⁸, marjinal NPL koeffitsiyenti va NPL elastikligi⁹. Ushbu ko'rsatkichlar kredit portfelining miqdoriy o'sishi uning sifat ko'rsatkichlari bilan qanday nisbatda kechayotganini yil kesimida aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, banklar mulkchilik tarkibi, yangi ajratilgan kreditlar tarkibi va aholining qarz yuki ko'rsatkichlari kredit riskining tuzilmaviy manbalarini aniqlash maqsadida tahlil qilindi.

Sun'iy intellektning kredit risklarini boshqarishdagi imkoniyatlarini baholashda mashinali o'qitish, kredit skoringi, defolt ehtimolini prognozlash va erta ogohlantirish tizimlarining nazariy-metodik imkoniyatlari o'rganildi [13–19]. Sun'iy intellekt asosidagi modellarni bank risk-menejment tizimiga integratsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqishda sabab-oqibatli va tizimli yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini kredit risklarini aniqlash – baholash – prognozlash – monitoring qilish – erta ogohlantirish – boshqaruv qarorini qabul qilish ketma-ketligida tashkil etish tamoyili tashkil qiladi [7; 10]. Bu yondashuv kredit portfeli risklarini retrospektiv baholashdan proaktiv boshqaruv modeliga o'tish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston tijorat banklarida kredit portfeli risklarini boshqarish samaradorligini baholashda kredit portfelining hajmi, muammoli kreditlar (NPL) miqdori va ularning jami kreditlardagi ulushi o'zaro bog'liq holda tahlil qilinishi lozim. Mazkur ko'rsatkichlarning 2023–2025-yillardagi, ya'ni uch to'liq yillik dinamikasi kreditlash ko'lamiga kengayib borayotgan sharoitda kredit risklarining mutlaq va nisbiy o'zgarishini aniqlash imkonini beradi [6].

1-jadval.

O'zbekiston tijorat banklari kredit portfeli va muammoli kreditlarining 2023–2025-yillardagi dinamikasi¹⁰

Ko'rsatkich	2023-yil 1-yanvar	2024-yil 1-yanvar	2025-yil 1-yanvar	2026-yil 1-yanvar	2023–2025-yillarda o'zgarish (3 yil)
Jami kredit portfeli, mlrd so'm	390 049	471 406	533 121	604 002	+54,9%
Muammoli kreditlar (NPL), mlrd so'm	13 992	16 621	21 185	18 055	+29,0%
NPLning jami kreditlardagi ulushi, %	3,6	3,5	4,0	3,0	–0,6 foiz band
Kredit portfelining yillik o'sishi, %	—	20,9	13,1	13,3	CAGR: 15,7%
NPLning yillik o'sishi, %	—	18,8	27,5	–14,8	CAGR: 8,9%
NPL o'sishi va kredit portfeli o'sishi o'rtasidagi farq, foiz band	—	–2,1	+14,4	–28,1	–25,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari NPL bo'yicha statistik ma'lumotlari [6] asosida muallif hisob-kitobi. Yillik o'sish ko'rsatkichlari tegishli yil yakuniga (keyingi yilning 1-yanvariga) nisbatan keltirilgan.

Jadval ma'lumotlari uch yillik davrni yil kesimida baholash imkonini beradi. **2023-yilda** kredit portfeli 390,0 trln so'mdan 471,4 trln so'mgacha, ya'ni 81,4 trln so'mga yoki 20,9 foizga o'sgan, NPL hajmi esa 14,0 trln so'mdan 16,6 trln so'mgacha (18,8 foiz) oshgan. NPL o'sishi portfel o'sishidan 2,1 foiz bandga past bo'lgani sababli, uning ulushi 3,6 foizdan 3,5 foizgacha pasaygan. Markaziy bankning 2023-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhida ham muammoli kreditlar ulushi deyarli o'zgarishsiz, 3,5 foiz atrofida shakllangani qayd

8 O'rtacha yillik o'sish sur'ati (CAGR) quyidagi formula bo'yicha hisoblangan: $CAGR = (X_{2026} / X_{2023})^{(1/3)} - 1$, bu yerda X_{2023} va X_{2026} — mos ravishda 2023-yil 1-yanvar va 2026-yil 1-yanvar holatidagi qiymatlar.

9 Marjinal NPL koeffitsiyenti — yil davomida NPL mutlaq o'zgarishining kredit portfeli mutlaq o'sishiga nisbati ($\Delta NPL / \Delta Kredit \times 100$). NPL elastikligi — NPL o'sish sur'atining kredit portfeli o'sish sur'atiga nisbati; uning 1 dan yuqori qiymati muammoli kreditlar portfelga nisbatan tezroq o'sayotganini, manfiy qiymati esa portfel o'sishi sharoitida NPLning mutlaq qisqarganini bildiradi.

10 Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risidagi oylik ma'lumotlar Markaziy bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi: <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/>. 2026-yil 1-yanvar holatidagi ko'rsatkich 2025-yil yakunini aks ettiradi, shu sababli 2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvargacha bo'lgan oraliq 2023, 2024 va 2025-yillardan iborat uch to'liq yilni qamrab oladi.



etilgan [5]. Demak, 2023-yilda kreditlashning yuqori sur'atlari portfel sifatining sezilarli yomonlashuvi bilan kechmagan.

2024-yilda vaziyat tubdan o'zgargan. Kredit portfeli 13,1 foizga (61,7 trln so'mga) o'sgan bir paytda NPL hajmi 27,5 foizga (4,6 trln so'mga) ko'paygan. Natijada NPLning kredit portfelidagi ulushi 3,5 foizdan 4,0 foizgacha oshgan. Markaziy bank ma'lumotlarida 2024-yil davomida NPL ulushi yilning ayrim oylarida 4,5–4,8 foizgacha ko'tarilgani, yil yakunida esa 4,0 foiz darajasida shakllangani qayd etilgan [6]. Mazkur holat kredit risklarini boshqarishda faqat yakuniy NPL ko'rsatkichini kuzatish yetarli emasligini ko'rsatadi. Chunki kredit muammoli toifaga o'tgunga qadar uning moliyaviy holatida bir qator erta indikatorlar paydo bo'lishi mumkin. Bunday indikatorlarga to'lovlarning kechikishi, qarz oluvchining qarz yukining ortishi, pul oqimlarining qisqarishi, hisobvaraqlar bo'yicha aylanmalarning pasayishi, kreditning qayta tuzilishi, yangi kredit hisobidan eski majburiyatlarni qoplashga urinish va boshqa omillarni kiritish mumkin [14]. Sun'iy intellekt texnologiyalarining muhim afzalligi aynan ushbu ko'p sonli indikatorlarni bir vaqtning o'zida qayta ishlash va ular o'rtasidagi nochiziqli bog'liqliklarni aniqlash imkoniyatidir [13; 15].

2025-yilda esa teskari tendensiya kuzatilgan: kredit portfeli 13,3 foizga (70,9 trln so'mga) kengayib, 604,0 trln so'mga yetgan bo'lsa-da, NPL hajmi 21,2 trln so'mdan 18,1 trln so'mgacha (–14,8 foiz) qisqargan va uning ulushi uch yillik davrdagi eng past daraja — 3,0 foizga tushgan. Markaziy bank 2025-yil yakunlari bo'yicha muammoli kreditlar ulushining 3 foizgacha pasayganini, shu bilan birga mikroqarz segmentida kredit faolligi va ayrim risklar saqlanib qolayotganini qayd etgan [5]. Shu yili bank tizimining sof foydasi 15,5 trln so'mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan qariyb 2,2 baravar oshgani¹¹ kredit sifatining yaxshilanishi va rezerv xarajatlarining qisqarishi bank daromadlilikiga bevosita ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi [22].

Uch yillik davr yakunida kredit portfeli 214,0 trln so'mga yoki 54,9 foizga (o'rtacha yillik 15,7 foiz) kengaygan, NPL hajmi esa 4,1 trln so'mga yoki 29,0 foizga (o'rtacha yillik 8,9 foiz) oshgan. Boshqacha aytganda, butun davr bo'yicha NPL portfelga nisbatan qariyb ikki baravar sekin o'sgan. Biroq bu umumlashgan natija yillar kesimidagi keskin tebranishlarni yashiradi. Buni aniqroq ko'rsatish uchun kredit portfeli sifatining integral ko'rsatkichlari hisoblandi (2-jadval).

2-jadval.

Kredit portfeli sifatining 2023–2025-yillardagi integral ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	2023-yil	2024-yil	2025-yil	2023–2025-yillar (jami)
Kredit portfelining mutlaq o'sishi, mlrd so'm	81 357	61 715	70 881	213 953
NPLning mutlaq o'zgarishi, mlrd so'm	+2 629	+4 564	–3 130	+4 063
Marjinal NPL koeffitsiyenti, %	3,2	7,4	–4,4	1,9
NPL elastikligi (NPL o'sishi / portfel o'sishi)	0,90	2,10	–1,11	0,53
Yil yakunidagi NPL ulushi, %	3,5	4,0	3,0	3,5 (o'rtacha)

Manba: 1-jadval ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

2-jadvaldan ko'rinadiki, 2023-yilda har 100 so'mlik kredit portfeli o'sishiga 3,2 so'mlik NPL o'sishi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 7,4 so'mgacha, ya'ni 2,3 baravar oshgan. NPL elastikligi 2023-yildagi 0,90 dan 2024-yilda 2,10 ga ko'tarilgan, bu esa muammoli kreditlarning portfelga nisbatan ikki baravardan ortiq tezroq o'sganini bildiradi. 2025-yilda elastiklik manfiy (–1,11) qiymatga ega bo'lib, portfel o'sishi sharoitida NPLning mutlaq qisqarganini ko'rsatadi. Uch yillik elastiklik (0,53) esa umumiy tendensiya ijobiy ekanini tasdiqlaydi. Mazkur natijalar kredit portfeli sifati chiziqli emas, balki tsiklik xarakterga ega ekanini va sifatning yomonlashuvi bir yil ichida keskin yuz berishi mumkinligini ko'rsatadi. Bunday dinamikani faqat yil yakunidagi NPL ko'rsatkichi orqali o'z vaqtida aniqlash qiyin; shu sababli oylik va hatto kundalik ma'lumotlarga asoslangan prognozli monitoring tizimi zarur [10; 14].

Kredit portfeli hajmining yuqori sur'atlarda kengayishi bilan bog'liq ikkinchi muhim jihat — kredit riskining banklar o'rtasida bir xil taqsimlanmaganligidir. O'zbekiston bank tizimida davlat ulushi mavjud banklarning kredit portfelidagi salmog'i yuqori bo'lib, bu kredit risklarini konsentratsiya nuqtayi nazaridan alohida tahlil qilishni talab etadi [4].

¹¹ Kursiv.media. Klub trillionerov: kak banki Uzbekistana porabotali v 2025 godu. 30.01.2026. URL: <https://uz.kursiv.media/2026-01-30/klub-trillionerov-kak-banki-uzbekistana-porabotali-v-2025-godu/>



3-jadval.

Tijorat banklarida kredit portfeli va NPLning banklar mulkchilik tarkibi bo'yicha dinamikasi

Ko'rsatkich	2023-yil 1-yanvar	2024-yil 1-yanvar	2025-yil 1-yanvar	2026-yil 1-aprel	2023-yil 1-yanvar – 2026- yil 1-aprel o'zgarish
Davlat ulushi mavjud banklar kreditlari, mlrd so'm	324 681	333 298	366 731	415 581	+28,0%
Davlat ulushi mavjud banklar NPL, mlrd so'm	12 643	13 267	14 344	14 296	+13,1%
Davlat ulushi mavjud banklarda NPL ulushi, %	3,9	4,0	3,9	3,4	–0,5 foiz band
Boshqa banklar kreditlari, mlrd so'm	65 368	138 108	166 391	207 705	+217,7%
Boshqa banklar NPL, mlrd so'm	1 349	3 354	6 841	5 566	+312,6%
Boshqa banklarda NPL ulushi, %	2,1	2,4	4,1	2,7	+0,6 foiz band
Davlat ulushi mavjud banklarning jami kredit portfelidagi ulushi, %	83,2	70,7	68,8	66,7	–16,5 foiz band
Boshqa banklarning jami kredit portfelidagi ulushi, %	16,8	29,3	31,2	33,3	+16,5 foiz band

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yil 1-yanvar, 2024-yil 1-yanvar, 2025-yil 1-yanvar va 2026-yil 1-aprel holatidagi NPL statistik ma'lumotlari [6; 25] asosida muallif hisob-kitobi.¹²

Jadvaldan ko'rinadiki, davlat ulushi mavjud banklarning jami kredit portfelidagi ulushi 2023-yil boshidagi 83,2 foizdan 2025-yil boshiga kelib 68,8 foizgacha, 2026-yil 1-aprelga kelib esa 66,7 foizgacha qisqargan. Shu davrda boshqa banklarning kredit portfelidagi ulushi 16,8 foizdan 33,3 foizgacha oshgan. Bu jarayon bank tizimida kreditlash bozorining diversifikatsiyalanayotganini ko'rsatadi [4]. Biroq boshqa banklar segmentida NPL dinamikasi alohida e'tibor talab qiladi. 2023-yil boshida ushbu banklarda NPL 1,349 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil boshiga kelib 6,841 trln so'mga yetgan, ya'ni 5,1 baravar oshgan. Shu davrda ushbu banklarning kredit portfeli 65,4 trln so'mdan 166,4 trln so'mgacha, ya'ni 154,5 foizga kengaygan. Natijada NPL ulushi 2,1 foizdan 4,1 foizgacha ko'tarilgan. Davlat ulushi mavjud banklarda esa 2023–2024-yillarda kredit portfeli 13,0 foizga, NPL hajmi 13,5 foizga oshgan va NPL ulushi 3,9–4,0 foiz atrofida shakllangan.

Uch yillik davrning uchinchi yili — 2025-yilda ikkala segmentda ham kredit sifati yaxshilangan: davlat ulushi mavjud banklarda NPL darajasi 0,7 foiz bandga pasayib, 3,2 foizni, xususi banklarda esa 1,5 foiz bandga kamayib, taxminan 2,6 foizni tashkil etgan¹³ [24]. 2026-yil 1-aprel holatida mos ko'rsatkichlar 3,4 va 2,7 foiz bo'lgan [25]. Demak, 2024-yilda boshqa banklar segmentida kuzatilgan NPLning keskin o'sishi 2025-yilda sezilarli darajada bartaraf etilgan, biroq alohida banklar kesimida NPL darajasi 1 foizdan past ko'rsatkichdan 20 foizdan yuqori ko'rsatkichgacha keng oraliqda tebranmoqda [23; 24]. Ushbu tafovut kredit risklarini boshqarishda barcha banklarga bir xil algoritmik yondashuvni qo'llashdan ko'ra, bankning biznes modeli, mijozlar segmenti, kredit mahsulotlari va risk profiliga moslashtirilgan modellarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Masalan, chakana kreditlashda qarz oluvchining to'lov intizomi, daromadlari va qarz yukining dinamikasi asosiy indikatorlardan biri bo'lsa, korporativ kreditlashda korxonaning pul oqimi, moliyaviy koeffitsiyentlari, tarmoqdagi holati, konsentratsiya darajasi va garov ta'minotining sifati muhimroq bo'lishi mumkin [7; 17].

Kredit riskining tuzilmaviy manbalarini aniqlashda yangi ajratilayotgan kreditlar tarkibini ham uch yillik davr kesimida tahlil qilish muhim (4-jadval).

¹² 2026-yil 1-aprel holatida bank tizimi bo'yicha jami kreditlar 623 286,1 mlrd so'm, NPL 19 861,3 mlrd so'm (3,19 foiz), davlat ulushi mavjud banklarda mos ravishda 415 580,7 mlrd so'm va 14 295,8 mlrd so'm (3,44 foiz) bo'lgan. Qarang: Frank.uz. URL: <https://frank.uz/news/czb-predstavil-statistiku-problemnyh-kreditov-v-bankovskoj-sisteme/>

¹³ Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda davlat ulushi mavjud banklarda NPL darajasi 0,7 foiz bandga pasayib, 3,2 foizni tashkil etgan, xususi banklarda esa 1,5 foiz bandga kamaygan. Qarang: Anhor.uz. 2025-yilda banklarda muammoli kreditlar ulushi. URL: <https://anhor.uz/uz/iqtisodiyot/2025-yilda-banklarda>



4-jadval.

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning 2023–2025-yillardagi tarkibi

Ko'rsatkich	2023-yil*	2024-yil	2025-yil	2023–2025-yillarda o'zgarish
Jami ajratilgan kreditlar, trln so'm	251,3	287,1	390,0	+55,2%
shu jumladan: jismoniy shaxslarga, trln so'm	100,7	104,7	157,0	+56,0%
yuridik shaxslar va tadbirkorlarga, trln so'm	150,6	182,4	233,0	+54,7%
Jismoniy shaxslarning ulushi, %	40,1	36,5	40,3	+0,2 foiz band
Jami kredit ajratishning yillik o'sishi, %	—	14,2	35,8	—

Manba: Markaziy bankning 2024-yil uchun yillik hisoboti [4] va 2025-yil yakunlari bo'yicha ma'lumotlar [22] asosida muallif hisob-kitobi. *2023-yil ko'rsatkichlari hisob-kitob yo'li bilan aniqlangan.¹⁴

4-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2023–2025-yillarda yil davomida ajratilgan kreditlar hajmi 251,3 trln so'mdan 390,0 trln so'mgacha, ya'ni 55,2 foizga oshgan. Bunda 2024-yilda aholiga kredit ajratish atigi 4 foizga o'sgan bo'lsa, 2025-yilda 51 foizga oshib, 157 trln so'mga yetgan [22]. 2024-yilda aholiga ajratilgan 104,7 trln so'mlik kreditlarning 43,8 foizi mikroqarzarlar, 17,7 foizi iste'mol kreditlari, 16,6 foizi mikro kreditlar va 16,3 foizi ipoteka kreditlaridan iborat bo'lgan [4]. Bu holat chakana segmentda kredit riskining to'planishi, ayniqsa, qisqa muddatli va ta'minotsiz mikroqarzarlar ulushining yuqoriligi bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Aholining qarz yukiga oid ko'rsatkichlar ham ushbu xulosani tasdiqlaydi. Markaziy bankning 2024-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhiga ko'ra, jismoniy shaxslarning o'rtacha qarz yuki 34 foizni tashkil etgan, qarz yuki 50 foizdan yuqori bo'lgan qarz oluvchilarga ajratilgan kreditlar jami kreditlarning 40 foizini tashkil qilgan, 2024-yilda kredit olgan jismoniy shaxslarning 68 foizi bittadan ortiq kredit majburiyatiga ega bo'lgan. Mikroqarzarlar qoldig'i 2024-yil oxirida 42,4 trln so'mga yetib, qarz oluvchilar soni 37 foizga oshib, qariyb 2,3 mln nafarni tashkil etgan¹⁵ [26]. Bunga javoban 2025-yil 1-yanvardan qarz yukining eng yuqori chegarasi 50 foiz etib belgilandi [4], 2025-yil aprel oyida esa banklarga makroprudensial normativlar va mikroqarzarlar bo'yicha to'lovlarning eng yuqori qiymatlariga doir talablar tasdiqlandi¹⁶ [3]. 2025-yilda NPL ulushining pasayishi ushbu choralar samarasi bilan ham izohlanadi. Shu bilan birga, kreditlarning dollarlashuv darajasi 2026-yil 1-yanvar holatiga 39 foizni tashkil etib, bir yil ichida qariyb 4 foiz bandga pasaygan bo'lsa-da, xorijiy valyutadagi kreditlarning mutlaq hajmi o'sishda davom etgan¹⁷ [28]. Bu valyuta kursi o'zgarishining qarz oluvchilar to'lov qobiliyatiga ta'sirini erta ogohlantirish tizimida alohida omil sifatida hisobga olishni talab qiladi.

Kredit portfeli sifatining o'zgarishini baholashda faqat NPL ko'rsatkichining o'zi emas, balki NPLga o'tishdan oldingi kreditlar holatini ifodalovchi "substandart" kreditlar ulushi ham muhimdir. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil 1-yanvar holatida kredit portfelining 80 foizi standart, 16 foizi substandart va 3,5 foizi muammoli kreditlardan tashkil topgan. 2025-yil 1-yanvar holatiga standart kreditlar ulushi 79 foizga, substandart kreditlar ulushi 17 foizga va muammoli kreditlar ulushi 4 foizga teng bo'lgan [4; 5].

Mazkur tarkibiy siljish muhim metodologik xulosaga olib keladi: kredit risklarini boshqarish tizimi kreditni "muammoli kredit" maqomiga yetib kelganidan keyin harakat qiladigan mexanizm emas, balki substandart holatga o'tish ehtimolini oldindan aniqlaydigan prognozlash tizimi bo'lishi kerak [12]. Aynan shu nuqtada sun'iy intellekt asosidagi erta ogohlantirish modellarining iqtisodiy samaradorligi yuzaga chiqadi [14]. Markaziy bankning 2024-yilgi hisobotida kredit portfeli sifatini yaxshilash maqsadida kredit portfellarini banklar, hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va segmentlar kesimida tahlil qilish kuchaytirilgani, shuningdek, yirik qarzдорlarning

14 2023-yil ko'rsatkichlari Markaziy bankning 2024-yil uchun yillik hisobotidagi ma'lumotlar (2024-yilda 287,1 trln so'm kredit ajratilgani, bu 2023-yilga nisbatan 35,8 trln so'm ko'p ekan, shu jumladan aholiga 104,7 trln so'm) hamda 2024-yilda jismoniy shaxslarga kredit ajratish 4 foizga, yuridik shaxslarga 21 foizga o'sgani haqidagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan teskari hisoblangan. Ajratilgan kreditlar (yil davomidagi oqim) va kredit portfeli qoldig'i (sana holatidagi zaxira) turli ko'rsatkichlar ekanini inobatga olish lozim.

15 Markaziy bankning 2024-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhi ma'lumotlari. Qarang: Gazeta.uz. O'zbekiston aholisining qarz yuki yuqoriligicha qolmoqda, mikroqarzarlar bo'yicha xatarlar ortmoqda. 03.06.2025. URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2025/06/03/credits/>

16 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining "Banklarga o'rnatiladigan makroprudensial normativlar hamda ular tomonidan beriladigan kreditlar (mikroqarzarlar) bo'yicha to'lovlarning eng yuqori qiymatlariga doir talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 3618, 22.04.2025). URL: <https://lex.uz/docs/-7491592>

17 Gazeta.uz. Dollarizatsiya v Uzbekistane snizilas', no valyutnye riski bankov vyrosli — CB. 27.07.2026. URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2026/07/27/dollarization/>



banklarning moliyaviy holatiga ta'sirini baholash uchun TOP-50 qarzdorlar bo'yicha monitoring amaliyoti joriy etilgani qayd etilgan [4]. Bu yondashuv sun'iy intellektni bank risk-menejmentiga integratsiya qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar arxitekturasining asosiy yo'nalishlarini ham belgilab beradi [10].

2026-yilning dastlabki oylari ma'lumotlari ham prognozli monitoring zarurligini tasdiqlaydi. 2026-yil 1-fevral holatida NPL hajmi 19,4 trln so'mga (3,2 foiz)¹⁸ [23], 1-aprelda 19,9 trln so'mga (3,19 foiz) [25], 1-mayda esa qariyb 21,9 trln so'mga (3,5 foiz) yetgan, ammo bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davridagi 4,2 foizdan past bo'lgan [27]. Markaziy bank rahbariyati muammoli kreditlar boshqariladigan darajada ekanini va sof muammoli kreditlarning 80 foizi rezervlar bilan qoplanganini ta'kidlagan¹⁹ [27]. Shunga qaramay, yil boshidagi 3,0 foizdan to'rt oy ichida 3,5 foizgacha ko'tarilish kredit sifati mavsumiy va tsiklik omillarga sezgir ekanini ko'rsatadi.

Bunday sharoitda sun'iy intellekt asosidagi kredit risklarini boshqarish mexanizmini quyidagi ketma-ketlikda tashkil etish maqsadga muvofiq: 1) ma'lumotlarni yig'ish va integratsiya qilish – 2) ma'lumotlarni tozalash va validatsiya qilish – 3) qarz oluvchini risk segmentlariga ajratish – 4) defolt ehtimolini prognozlash – 5) kredit portfeli bo'yicha risk konsentratsiyasini aniqlash – 6) erta ogohlantirish signalini shakllantirish – 7) kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish yoki boshqa risk choralari qo'llash – 8) model natijalarini monitoring va qayta validatsiya qilish [8; 10].

Ushbu mexanizmda sun'iy intellektning vazifasi bank xodimini to'liq almashtirish emas, balki katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor qayta ishlab, inson ekspertizasi uchun asoslangan signal va prognozlarni shakllantirishdan iborat bo'lishi kerak [9; 11]. Ayniqsa, kredit qarorlarining tushuntiriluvchanligi, modelning aniqligi, ma'lumotlarning sifati va algoritmik xatoliklarni nazorat qilish kredit risklarini boshqarishning ajralmas qismiga aylanishi lozim [16–19]. 2026-yil 1-yanvar holatiga jami kredit portfeli 604,0 trln so'mga yetgani sababli NPL ulushidagi 0,1 foiz bandlik o'zgarish ham qariyb 0,6 trln so'mlik nominal risk summasini anglatadi. Shunday qilib, 2023–2025-yillar ma'lumotlari ikki xil tendensiyani ko'rsatadi. Bir tomondan, kredit portfeli uzluksiz kengayib, banklarning iqtisodiyotni moliyalashtirishdagi rolini kuchaytirgan. Ikkinchi tomondan, kredit portfelining o'sishi 2024-yilda NPLning ancha tezroq o'sishi bilan birga kechgan. 2025-yil yakunida NPL ulushining 3,0 foizgacha pasayishi kredit risklarini boshqarish bo'yicha ko'rilayotgan choralar samaradorligi oshganini ko'rsatadigan muhim fakt sifatida baholanishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, tadqiqot natijalari tijorat banklarida kredit risklarini boshqarishning istiqboldagi modeli "fakt sodir bo'lgandan keyingi nazorat"dan "riskni oldindan aniqlash va prognozlash"ga o'tishi kerakligini ko'rsatadi. Sun'iy intellekt asosidagi model kredit portfelining barcha qatlamlarida — kredit berishdan oldingi scoring, kredit ajratilgandan keyingi monitoring, substandart kreditlarni aniqlash, NPLga o'tish ehtimolini baholash va portfel konsentratsiyasini nazorat qilish bosqichlarida qo'llanilganda risk-menejmentning proaktiv xarakterini kuchaytiradi [13; 14]. Bunda sun'iy intellekt modelining yakuniy qaror qabul qiluvchi emas, balki risk-menejment qarorlarini qo'llab-quvvatlovchi analitik modul sifatida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv model riski, ma'lumotlar sifati, algoritmik xolislik va izohlanadigan qarorlar bilan bog'liq xavflarni nazorat qilish imkonini beradi [10; 17]. Natijada kredit portfeli risklarini boshqarish mexanizmi statistik monitoringdan prognozli monitoringga, individual kredit baholashdan portfel darajasidagi kompleks risk tahliliga va reaktiv boshqaruvdan proaktiv boshqaruvga transformatsiyalanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tijorat banklarida kredit portfelining izchil kengayishi kredit risklarini boshqarish mexanizmlarini yanada takomillashtirishni talab etmoqda. 2023–2025-yillarda kredit portfeli 54,9 foizga (o'rtacha yillik 15,7 foiz) kengaygan, NPL hajmi esa 29,0 foizga oshib, uning ulushi 3,6 foizdan 3,0 foizgacha pasaygan. Biroq 2024-yilda marjinal NPL koeffitsiyenti 7,4 foizga, NPL elastikligi esa 2,10 ga yetgani, boshqa banklar segmentida NPL ikki yil ichida 5,1 baravar oshgani hamda 2026-yilning dastlabki oylarida NPL ulushi yana 3,5 foizgacha ko'tarilgani kredit sifatining tsiklik va beqaror xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Bu esa kredit risklarini faqat yuzaga kelganidan keyin aniqlashga asoslangan yondashuvning yetarli emasligini tasdiqlaydi.

Shu sababli kredit risklarini boshqarishda sun'iy intellekt va mashinali o'qitish texnologiyalaridan foydalanib, qarz oluvchining defolt ehtimolini oldindan baholash, kredit portfelini doimiy monitoring qilish va muammoli kreditlarning dastlabki belgilarini aniqlashga asoslangan proaktiv mexanizmni shakllantirish maqsadga muvofiq. Buning uchun quyidagilar taklif etiladi: birinchidan, tijorat banklarida kredit byurosi, to'lov tizimlari va bank ichki ma'lumotlarini birlashtiruvchi yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish; ikkinchidan, kredit scoring modellarini sun'iy intellekt algoritmlari bilan takomillashtirish va ularni mikroqarz hamda iste'mol kreditlari segmentida

18 Kursiv.media. Zimniy manyovr: bankovskiy sektor Uzbekistana na starte 2026 goda. 16.03.2026. URL: <https://uz.kursiv.media/2026-03-16/zimnij-manevr-bankovskiy-sektor-uzbekistana-na-starte-2026-goda/>

19 Markaziy bank Raisining 2026-yil 13-iyunda Senatdagi axboroti. Qarang: Gazeta.uz. 16.06.2026. URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2026/06/16/npl/>



ustuvor qo'llash; uchinchidan, marjinal NPL koeffitsiyenti, NPL elastikligi, qarz yuki va dollarlashuv darajasi kabi indikatorlarni o'z ichiga olgan erta ogohlantirish tizimini joriy etish; to'rtinchidan, modellarni muntazam validatsiya qilish, SHAP va LIME kabi izohlash vositalaridan foydalanish hamda yakuniy kredit qarorlarida inson nazoratini saqlab qolish. Shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi qarorlarning tushuntiriluvchanligi, ma'lumotlar sifati, algoritmik xolislik va kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish zarur [8; 10; 11]. Mazkur choralar kredit qarorlarining sifatini oshirish, NPL shakllanishining oldini olish, kredit portfeli barqarorligini mustahkamlash hamda tijorat banklarining risklarni boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori. "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida". URL: <https://lex.uz/docs/-7158604>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni. "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida". URL: <https://lex.uz/docs/-4811025>
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori. "Banklarga o'rnatiladigan makroprudensial normativlar hamda ular tomonidan beriladigan kreditlar (mikroqarzlar) bo'yicha to'lovlarning eng yuqori qiymatlariga doir talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" (ro'yxat raqami 3618, 22.04.2025). URL: <https://lex.uz/docs/-7491592>
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Markaziy bankning 2023, 2024 va 2025-yillar uchun yillik hisobotlari. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. URL: <https://cbu.uz/upload/medialibrary/ded/k3lrh194iz4934w1hzgsdw3obmrrdn0/Godovoy-otchet-2025.pdf>
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Moliyaviy barqarorlik sharhi: 2023–2026-yillar. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. URL: https://cbu.uz/upload/medialibrary/406/a2p2do8p44opvl4xaitvn59agkqppb6h/2023_yil-uchun-moliyaviy-barqarorlik-sharhi.pdf
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risida ma'lumot: 2023-yil 1-yanvar – 2026-yil 1-aprel holatiga. URL: <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/>
7. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for the Management of Credit Risk. — Basel: Bank for International Settlements, 2000. URL: <https://www.bis.org/publ/bcbs75.htm>
8. Basel Committee on Banking Supervision. Sound Practices: Implications of fintech developments for banks and bank supervisors. — Basel: BIS, 2018. URL: <https://www.bis.org/bcbs/publ/d431.htm>
9. Financial Stability Board. Artificial intelligence and machine learning in financial services: Market developments and financial stability implications. — Basel: FSB, 2017. URL: <https://www.fsb.org/2017/11/artificial-intelligence-and-machine-learning-in-financial-service/>
10. European Banking Authority. Report on Big Data and Advanced Analytics. EBA/REP/2020/01. — Paris: EBA, 2020.
11. Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council of 13 June 2024 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act) // Official Journal of the European Union. — 2024. URL: <http://data.europa.eu/eli/reg/2024/1689/oj>
12. International Accounting Standards Board. IFRS 9 Financial Instruments. — London: IFRS Foundation, 2014.
13. Lessmann, S., Baesens, B., Seow, H.-V., Thomas, L. C. Benchmarking state-of-the-art classification algorithms for credit scoring: An update of research // European Journal of Operational Research. — 2015. — Vol. 247, No. 1. — P. 124–136. — DOI: 10.1016/j.ejor.2015.05.030.
14. Khandani, A. E., Kim, A. J., Lo, A. W. Consumer credit-risk models via machine-learning algorithms // Journal of Banking & Finance. — 2010. — Vol. 34, No. 11. — P. 2767–2787. — DOI: 10.1016/j.jbankfin.2010.06.001.
15. Bazarbash, M. FinTech in Financial Inclusion: Machine Learning Applications in Assessing Credit Risk // IMF Working Paper. — 2019. — No. 109. — 34 p. — DOI: 10.5089/9781498314428.001.
16. Fuster, A., Goldsmith-Pinkham, P., Ramadorai, T., Walther, A. Predictably Unequal? The Effects of Machine Learning on Credit Markets // The Journal of Finance. — 2022. — Vol. 77, No. 1. — P. 5–47. — DOI: 10.1111/jofi.13090.
17. Bussmann, N., Giudici, P., Marinelli, D., Papenbrock, J. Explainable Machine Learning in Credit Risk Management // Computational Economics. — 2021. — Vol. 57. — P. 203–216. — DOI: 10.1007/s10614-020-10042-0.



18. Lundberg, S. M., Lee, S.-I. A Unified Approach to Interpreting Model Predictions // Advances in Neural Information Processing Systems 30 (NIPS 2017). — 2017. — P. 4765–4774.
19. Ribeiro, M. T., Singh, S., Guestrin, C. “Why Should I Trust You?”: Explaining the Predictions of Any Classifier // Proceedings of the 22nd ACM SIGKDD International Conference on Knowledge Discovery and Data Mining. — 2016. — P. 1135–1144. — DOI: 10.1145/2939672.2939778.
20. K. Sattarova. Tijorat banklarida kredit risklarini boshqarishda sun’iy intellekt va mashinali o’qitish algoritmlaridan foydalanish. — Bank-moliya akademiyasi ilmiy jurnali, 2025.
21. J. Rajabov. Kredit riskini baholashda Explainable Artificial Intelligence (XAI) texnologiyalaridan foydalanish. — Bank-moliya akademiyasi ilmiy jurnali, 2026.
22. Klub trillionerov: kak banki Uzbekistana porabotali v 2025 godu // Kursiv.media. — 30.01.2026. URL: <https://uz.kursiv.media/2026-01-30/klub-trillionerov-kak-banki-uzbekistana-porabotali-v-2025-godu/>
23. Zimniy manyovr: bankovskiy sektor Uzbekistana na starte 2026 goda // Kursiv.media. — 16.03.2026. URL: <https://uz.kursiv.media/2026-03-16/zimnij-manevr-bankovskij-sektor-uzbekistana-na-starte-2026-goda/>
24. 2025-yilda banklarda muammoli kreditlar ulushi 3 foizgacha pasaydi // Anhor.uz. — 2026. URL: <https://anhor.uz/uzl/iqtisodiyot/2025-yilda-banklarda>
25. CB predstavil statistiku problemnyh kreditov v bankovskoy sisteme (2026-yil 1-aprel holatiga) // Frank.uz. — 2026. URL: <https://frank.uz/news/czb-predstavil-statistiku-problemnyh-kreditov-v-bankovskoy-sisteme/>
26. O’zbekiston aholisining qarz yuki yuqoriligicha qolmoqda, mikroqarzlilar bo’yicha xatarlar ortmoqda — Markaziy bank // Gazeta.uz. — 03.06.2025. URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2025/06/03/credits/>
27. Uroven’ problemnyh kreditov ne sozdayot ugrozy dlya bankovskoy sistemy Uzbekistana — CB // Gazeta.uz. — 16.06.2026. URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2026/06/16/npl/>
28. Dollarizatsiya v Uzbekistane snizilas’, no valyutnye riski bankov vyrosli — CB // Gazeta.uz. — 27.07.2026. URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2026/07/27/dollarization/>



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Maqsudov Hasan

2026. № 4-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

